Somatik komponentli iboralar haqida umumiy tushuncha

Bolbekova Ug'iloy Jaloliddinovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

ugiloybolbekova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda uchraydigan inson ta'na a'zosi bilan bog'liq somatizm va somatik kompentli iboralarning o'rni va vazifasi, shuningdek tilshunoslikka kirib kelish tarixi haqida so'z boradi. Maqolada umumiy tushunchalar berilgan va misollar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: F.Vakk, E.M.Mordkovich, somatik frazeologizmlar, O. Nazarov, inson tana a'zolari.

Tilshunoslik ilmiga inson ta'na a'zosi bilan bog'liq somatizm va somatik frazeologizm tushunchalarining kirib kelish tarixi hamda bu atamalarni ilk bor qo'llangan F.Vakk va E.M.Mordkovichlarning tadqiqotlari haqida, somatik frazeologizmlar va ularning lingvistik tabiatini tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanganligi hamda bu tadqiqotlarda ularning bir til, ba'zilarida ikki-uch til doirasida qiyosiy o'rganilganligi to'g'risida fikrlar yuritildi . XX asr oxiri, XXIasrning boshlariga kelib somatik leksika uning leksik-semantik xususiyatlari, uning boshqa tillarga tarjima qilish muammolari, somatik leksikaning madaniyatlararo muloqotdagi o'rni kabi masalalar tilshunoslarning diqqat-e'tiborini tortgan asosiy muammolardan biriga aylandi. Bunga sabab butun jahonda avj olgan globalizasiya jarayoni, til va madaniyatlarning integrasiyalashuvi, madaniyatlararo muloqotni sifatini yaxshilashga bo'lgan intilish, kommunikativ tilshunoslikning rivojlanishi va xorijiy tillarni o'rganishning samarali usullarini yaratishga intilish kabi omillar sabab bo'ldi. "Somatik" atamasi ilk bora tilshunoslikka Finn olimi F. Vakk tomonidan kiritilgan bo'lib, u eston tilidagi inson tanasi nomlari bilan yasaladigan frazeologizmlarni "somatik frazeologizmlar" deb atagan edi.

Hozirgi zamon ingliz tilida somatik frazeologizmlar til leksik tarkibining katta qismini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan dastlab somatik frazeologik birlik tushunchasining umum qabul qilingan mohiyati haqida to'xtalsak. Somatik frazeologizmlar deyilganda komponentlaridan biri inson tanasi a'zolaridan birining nom bilan yasalgan ko'chma ma'nodagi frazeologik birliklar tushuniladi. Binobarin "Soma" so'zi grek tilidan olingan bo'lib "tana" degan ma'noni anglatadi. Somatik frazeologik birliklarning leksik-semantik va qiyosiy aspektda o'rganilishi xorijiy tilni o'rganayotgan talabalar, tarjimonlar uchun inglizzabon xalqlar tilida gapiruvchilar bilan muloqotni samarali olib borish, boshqa tildagi badiiy, ilmiy manbalarni asliyatda ifodalangan ma'nodagidek adekvat tushunishda muhim ahamiyatga egadir. Somatik frazeologizmlarni tadqiq qilishga yo'naltirilgan ilmiy ishlarning miqdori o'zining qiziqarliligi bilan juda ko'plab, turli aspektdagi tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Bunday frazeologik birliklarning vujudga kelishida inson omili eng katta rol o'ynaydi, binobarin frazeologizmlarning juda katta qismi inson nomi bilan, uning turli-tuman faoliyat turlari bilan bog'liq. Bunday frazeologizmlarning muloqot jarayonida, badiiy matnda qo'llanilishida muhim faktorlardan biri uning kim tomonidan qo'llanilishi(sub'ekt) va kimga nisbatan qo'llanilganligi (ob'ekt) muloqot va badiiy matnning muhim elementlaridan hisoblanadi. Inson o'z nutqiy faoliyati jarayonida tashqi olamni, predmet va hodisalarni o'z tanasi a'zolarining nomlari bilan assotsiasiya qilishga, fikrini ta'sirliroq, obrazliroq ifodalashga urinadi. Bir paytlar buyuk tilshunos olim Sh.Balli ta'kidlaganidek "*inson ongining doimiy takomillashuvi uning o'z*

atrofidagi, borliqdagi narsa va hodisalarning azaliy jonlantirishga bo'lgan intilishi bilan bog'liq. U doimiy ravishda tashqi olamni o'z shaxsiyatiga xos belgilar asosida idrok qilishga intiladi" .

Frazeologizmlar tarkibida somatizmlarning keng qo'llanilishi ular turli tillar leksik tarkibining eng qadimiy qatlamlarini tashkil qilishi bilan va til lug'at tarkibining yadrosinining muhim tarkibiy qismini tashkil qilishi bilan izohlanadi. Somatik frazeologizmlarning muhim xususiyatlaridan biri obrazliligi bilan bir-birlariga yaqin turadgan ularning ko'p sonli iboralar bilan ifodalanuvchi anologlari mavjudligidir. Bu xususiyat ularni frazeologik birliklarning boshqa tematik guruhlaridan alohida ajratib turuvchi belgidir.

Turli tillardagi somatik frazeologizmlar obrazliligi nuqtai nazardan o'zaro bir-birlariga mos kelishligi hodisasi maxsus tadqiqotlar olib borish zaruratini tug'diradigan eng qiziqarli muammolardan biri hisoblanadi. Bunday mos kelishlik, o'xshashlik nafaqat uning boshqa tillardan o'zlashtirilganligiga, balki ularni vujudga kelishidagi umumiy qonuniyatlar, bu boradagi universallik, ularning har bir tildagi funksional - semantik xususiyatlariga ham bog'liq.

Turli tillarda somatik frazeologik birliklarning ko'p miqdorda mavjud bo'lishligi va tilning leksik tarkibida mustahkam o'rnashib olishligi somatik leksikaning yuqori darajada metaforalashuv xususiyatiga egaligiga ham bog'liq. Inson tanasi a'zolarining nomi til leksik qatlamining muhim tarkibiy qismi sifatida insoniyat turmush tarzining, individual faoliyatining funksional hissiy jihatlari bilan bog'liq bo'lgan madaniy-antropologik xususiyatini aks ettirish vositasidir. Ular ayni paytda nafaqat til vakillarining atrof-muhit haqidagi bilimlarini, tasavvurlarini, balki ularning o'z shaxsiyati, o'z tanasi a'zolari haqidagi assosiativ tasavvurlarini ham aks ettiradi.

Somatatik frazeologizmlar til leksik qatlamining eng turg'unlashgan elementlari sifatida til tarixidagi eng muhim muammolarni tadqiq qilish, ularni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ruy beradigan leksik-semantik o'ziga xosliklarni, funksional-stilistik jihatlarini qiyoslab o'rganishda, shuningdek tillararo universallik hamda qardosh va qardosh bo'lmagan tillarni o'rganishda boy faktik materiallar va keng imkoniyatlar ochib beradi. Har qanday tildagi bunday leksik semantik guruh inson faoliyatining nutq jarayonida sodir bo'ladigan ikkilamchi nominatsiya jarayonini tadqiq qilishda ham boy faktik materiallar berilgan. Tilda inson omili bu obyektni foto yetqazish hozirgi kunda tilshunoslikning eng dolzarb muammolari bilan belgilanadi va hozirgi kunda tilshunoslik metodologiyasi tanqidi haqida gapiradi.

Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili ko'rsatishicha "somatizm" atamasining ham mohiyatini turlicha o'zgartirish turlicha talqin qilinadi. Somatizm atamasini birinchi bor tilshunoslikka kiritgan F.Vakk uni o'z tarkibida inson va hayvon tanasi a'zolari nomi bo'lgan, shuningdek ish-harakatning, munosabatlarning ramzini ifodalovchi mimika va jestlarni ifodalovchi turg'un so'z birikmalarini kiritadi.

Rus tilshunos-olim O. Nazarov esa somatik frazeologizmlar tarkibiga faqat inson tana a'zosining nomidagi bilan yasalgan frazeologizmlarni kiritib, mimika va jestlarni ular tarkibiga qo'shmaydi. [56, 29].

Odamlar o'z nutqiy faoliyatlari jarayonida o'z tana a'zolari nomida qiyoslash, metaforalash ideoma va maqollar tarkibida ko'chma ma'noda foydalanish orqali o'z fikrlarini yorqinroq, ifodaliroq, obrazliroq ifodalashga va bu orqali o'z suhbatdoshiga ko'proq pragmatik ta'sir qilishga urinadilar. Somatik frazeologizmlarda ko'pincha tillararo universallik hodisasi ham kuzatiladi. Ko'p hollarda ingliz tilidagi somatik frazeologizmlarni ifodalaydigan leksik-

semantik ma'no boshqa tillarda aynan shunday ma'nodagi ekvivalentiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *"to have something at ones fingertipps"- "o'zining besh qo'lidek bilmoq"*, ruscha somatik frazeologizm *"горячая голова"* - inglizcha – o'zbekcha *"o't–olov odam"* singari shakllarga egaki, bu holatni tillararo, madaniyatlararo universallik sifatida talqin qilish mumkin. Ko'pgina hollarda esa bir tildagi somatik frazeologizm ifodalovchi leksik semantik ma'no degani ikkinch tilda bo'lmasligi mumkin. Masalan, o'zbekcha *"toptalgan qalb"* ruscha- "разбитое сердце", bu frazeologizmning ingliz tilida anologi mavjud emas. Bunday somatik frazeologik birliklarni hosil qiluvchi inson tana a'zolarini turlicha tasniflash mumkin. Ularni asosiy belgilariga ko'ra alohida guruhlarga ajratish mumkin.

Masalan, axborotni tashqaridan qabul qiluvchiga tana a'zolari: ko'z,quloq, burun. Bu jarayonda qorin, yelka, oyoq, qo'l singari somatik frazeologik birliklar hosil qiluvchi tana a'zolarini alohida guruh sifatida talqin qilish mumkin. Inson o'gzidagi til axborot uzatishda qo'llaniladigan va frazeologizmlar hosil qilishdagi muhim tana a'zosi hisoblanuvchi alohida guruhni tashkil qiladi. Bundan tashqari, muloqot jarayonida foydalanadigan tana a'zolarining harakatini, ifodalaydigan frazeologizmlar hosil qiluvchi tana a'zolari guruhi ham mavjud.

"to feel one's heart sink" – "yuragi orqasiga tortib ketmoq"

"Where were your eyes?"- "Nima, o'zingning oyog'ing yo'qmi?"

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduramanova S.Processing of English idioms with body part compenents by native speakers of Turkish learning English with intermediate level of proficiency.Thesis for the Doctor of Philosophy Degree.Istanbul, 2012.142 pages.

2. Manerko L. From human body parts to the embodiment of spatial

conceptualization in English idioms. The 4 th UK Cognitive Linguistics

Conference.2014 , P. 195-213.

3. Papi M.B. Idiomatic and figurative uses of "hand"in English and "muno" in Italian: embodiment and cultural filters.Main Session Talks. Pisa, 2013.

4. Tanasi E.N. Arm and leg idioms in the BNC and Coca Corpora: views on the cultural differences between British and American society. International journal of Cognitive Research in Science, Engeineering, and Education. Vol.2, N 1, 2014. Page 77-85.

5. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка Дисс, , , канд.фил наук –Т ., 1976. 146 с

6. Нассири М. Семантика фразеологический единиц с соматическим

7. Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологизмларнинг изоҳли луғати